

TEMIR YO‘L TRANSPORTI TARMOG‘INING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekbayeva Feruza Baxtiyevovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o‘qituvchi i.f.f.d., PhD.

E-mail: bekbaevaferuza8@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda temir yo‘l transporti tarmog‘ining innovatsion rivojlanishi sharoitida investitsiya samaradorligini baholash metodikasi takomillashtirildi. Moliyaviy samaradorlik, texnik unumdorlik, innovatsion yetuklik va barqarorlik mezonlarini birlashtiruvchi integral yondashuv ishlab chiqildi. Temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektrlashtirish va raqamlashtirish loyihalarining iqtisodiy natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida investitsiya qarorlarini asoslash, resurslardan samarali foydalanish va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l transporti, investitsiya samaradorligi, innovatsiya, elektrlashtirish, raqamlashtirish, integral baholash, transport infratuzilmasi, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В исследовании была усовершенствована методика оценки эффективности инвестиций в условиях инновационного развития железнодорожного транспорта. Разработан интегральный подход, объединяющий показатели финансовой эффективности, технической производительности, инновационной зрелости и устойчивости. Проведен анализ экономических результатов проектов модернизации, электрификации и цифровизации железнодорожной инфраструктуры. По итогам исследования сформированы практические рекомендации, направленные на обоснование инвестиционных решений, эффективное использование ресурсов и повышение конкурентоспособности железнодорожной отрасли.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, эффективность инвестиций, инновации, электрификация, цифровизация, интегральная оценка, транспортная инфраструктура, устойчивое развитие.

Abstract

This study improved the methodology for evaluating investment efficiency in the context of innovative railway transport development. An integrated approach combining financial performance, technical productivity, innovation maturity, and sustainability indicators was developed. The economic outcomes of railway infrastructure modernization, electrification, and digitalization projects were analyzed. The findings provided practical recommendations for supporting investment decision-making, improving resource utilization, and strengthening the competitiveness of the railway sector. The proposed methodology contributes to more comprehensive assessment of infrastructure projects and long-term transport development.

Keywords: railway transport, investment efficiency, innovation, electrification, digitalization, integrated assessment, transport infrastructure, sustainable development.

KIRISH

Temir yo‘l transporti milliy iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri sifatida yuk va yo‘lovchi oqimlarini katta masofalarda ishonchli tashish, ishlab chiqarish markazlarini iste‘mol bozorlari bilan bog‘lash va mintaqalararo savdoni jadallashtirish vazifasini bajaradi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ushbu tarmoqni modernizatsiya qilishning keng ko‘lamli dasturini izchil amalga oshirmoqda: temir yo‘l tarmog‘ining 70 foizdan ortig‘i allaqachon elektrlashtirilgan bo‘lib, 2030-yilga qadar bu ko‘rsatkichni 85 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan, bu esa mamlakatni Markaziy Osiyodagi eng yuqori darajada elektrlashtirilgan tarmoqqa aylantiradi [1].

Modernizatsiya dasturi tarkibida harakatlanuvchi tarkibni yangilash alohida o‘rin egallaydi: Xitoy va Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan yuqori tezlikdagi elektropoyezdlar va vagonlar xarid qilinmoqda, 2025-yilning birinchi yarmida temir yo‘llar har kuni o‘rtacha 29,4 mingga yaqin yo‘lovchini tashidi, yangi poyezdlar Toshkent–Urganch–Xiva yo‘nalishida sayohat vaqtini taxminan 14 soatdan 7,5 soatgacha qisqartiradi [1].

Tarmoqni rivojlantirish xalqaro moliya institutlarining qo‘llab-quvvatlashi bilan amalga oshirilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki temir yo‘l operatsiyalarining samaradorligini oshirish va elektrovozlar parkini yangilash maqsadida 170 million dollarlik mablag‘ ajratdi [2]. Bundan tashqari, Buxoro, Misken, Urganch va Xivani bog‘lovchi 465 kilometrlik yo‘nalishni elektrlashtirishga 162 million dollar yo‘naltirilib, soatiga 250 kilometrgacha tezlik bilan harakatlanadigan poyezdlarni ishga tushirish va tarixiy markazlar o‘rtasidagi turistik oqimni kuchaytirish nazarda tutilgan [3].

Infratuzilmaviy qo‘yilmalarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri empirik tarzda baholangan. Tashguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on temir yo‘l yo‘nalishi bog‘langan hududlarda yalpi ichki mahsulot o‘sish sur‘atini taxminan 2 foizga oshirgani, sanoat qo‘shilgan qiymati qariyb 5 foizga, xizmatlar qo‘shilgan qiymati esa 7 foizga ko‘paygani aniqlangan [4]. Bunday natijalar transport infratuzilmasiga kiritilgan kapitalning hududiy rivojlanish uchun yuqori multiplikativ samara berishini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar hajmining sezilarli darajada o‘sishi va ularning innovatsion mazmun bilan boyitilishi - raqamlashtirish, elektrlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv va yuqori tezlikli xizmatlar - samaradorlikni baholashning ishonchli vositalariga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. An’anaviy moliyaviy o‘lchovlar uzoq muddatli, qisman moliyaviy bo‘lmagan va texnologik xususiyatga ega bo‘lgan innovatsion qo‘yilmalarning to‘liq qiymatini aks ettirishda cheklangan imkoniyatga ega. Maqolaning maqsadi temir yo‘l transportining innovatsion rivojlanishi sharoitida investitsiya samaradorligini baholashning integral metodikasini ishlab chiqish va uning amaliy qo‘llanilishini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transport infratuzilmasiga investitsiyalarning global miqyosdagi ko‘lami ilmiy adabiyotda muntazam baholanadi. Xalqaro transport forumining tahliliy hujjatlariga ko‘ra, prognoz qilingan talabni qondirish uchun zarur bo‘lgan asosiy infratuzilma qo‘yilmalari 2050-yilga qadar global yalpi ichki mahsulotning yiliga taxminan 1,7 foizini tashkil etadi [5]. Bunday miqyosdagi mablag‘larni baholashda tarmoq kompaniyalarining innovatsion rivojlanish darajasini o‘lchovchi integral indeks usuli alohida ajralib turadi: u rasmiy hisobotlar, strategik rejalashtirish hujjatlari va ekspert baholarini birlashtirib, innovatsion holatni raqobatchilar bilan qiyosan aks ettiruvchi yagona ko‘rsatkichni hosil qiladi va innovatsion yetuklikni miqdoriy o‘lchashning izchil asosini yaratadi [6].

Texnik samaradorlikni o‘lchashda parametrik bo‘lmagan usullar keng tarqalgan. O‘n oltita mamlakat temir yo‘l tizimlarini qamrab olgan qiyosiy tadqiqotda ma‘lumotlar o‘rami tahlili va Malmquist indeksi qo‘llanilib, yo‘l va temir yo‘l transportida umumiy omilli unumdorlikni oshirish hamda texnologik innovatsiyalarni joriy etish zarurati ko‘rsatilgan [7]. Yevropa temir yo‘l kompaniyalari misolida o‘tkazilgan tadqiqotda tarmoqli ma‘lumotlar o‘rami tahlili an‘anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq ajratish qobiliyatini namoyon etib, samarasizlik manbalarini aniqlash va eng yaxshi amaliyotlarga yo‘naltirish imkonini bergan [8].

Parametrik yondashuvlar va barqarorlik mezonlari ham muhim o‘rin tutadi. Stoxastik chegara regressiyasi Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasi asosida qo‘llanilib, parametrik va parametrik bo‘lmagan usullarni birlashtiruvchi gibridd metodlarni ishlab chiqish istiqbollari ochib beradi [9], ijtimoiy foyda-xarajat tahlili esa loyihaning jamiyat darajasidagi ta‘sirini har bir foyda va xarajatni tegishli manfaatdor tomonga bog‘lagan holda baholaydi [10]. So‘nggi yillarda nomaqbul natijalarni hisobga oluvchi integratsiyalashgan ma‘lumotlar o‘rami modellari ekologik samaradorlik va xavfsizlikni o‘lchashga imkon yaratdi [11], infratuzilma sig‘imini optimallashtirish metodologiyasi esa sarmoyalarni eng katta samara beruvchi yo‘nalish qismlariga yo‘naltirish mexanizmini taklif etdi [12].

Mavjud manbalarning qiyosiy ko‘rib chiqilishi shuni ko‘rsatadiki, har bir usul samaradorlikning ma‘lum bir o‘lchovini chuqur yoritadi, biroq ularni yagona baholash konturida birlashtiruvchi yondashuvlar nisbatan kam ishlab chiqilgan. Innovatsion temir yo‘l loyihalari, xususan rivojlanayotgan iqtisodiyotlar sharoitida, moliyaviy qaytim, unumdorlik o‘sishi, texnologik yetuklik va barqarorlikni bir vaqtda hisobga oluvchi integral metodikani talab qiladi; ushbu bo‘shliq taklif etilayotgan metodikaning kontseptual asosini belgilaydi.

METODOLOGIYA


Tadqiqotda qiyosiy-analitik yondashuv qo‘llanilib, investitsiya samaradorligini baholashning amaldagi usullari tizimlashtirildi va ularning innovatsion temir yo‘l loyihalariga tatbiq etilishi nuqtai nazaridan baholandi. Innovatsion qo‘yilmalarning ko‘lami va dinamikasi global raqamli temir yo‘l bozori ko‘rsatkichlari bilan tasdiqlanadi: bu bozor hajmi 2023-yilda 64,5 milliard dollardan oshib, 2024–2032-yillarda yiliga 9 foizdan ortiq o‘shish sur‘atida rivojlanishi kutilmoqda, bunda

urbanizatsiya, real vaqtdagi monitoring va prognozli texnik xizmat ko'rsatish asosiy harakatlantiruvchi omillar hisoblanadi [13]. Bunday o'sish innovatsion komponentni baholash konturiga alohida o'lcham sifatida kiritishni asoslaydi.

Taklif etilayotgan metodika to'rt o'lchovli tuzilmaga asoslanadi:

Birinchi o'lcham - moliyaviy samaradorlik - sof joriy qiymat, ichki rentabellik darajasi, diskontlangan qoplanish muddati va foyda-xarajat tahlili ko'rsatkichlarini qamrab oladi; ijtimoiy foyda-xarajat tahlili innovatsion va infratuzilmaviy loyihalarning jamiyat darajasidagi sof foydasini hisoblash imkonini beradi [10]. Foydalanuvchi foydasidan tashqari, transport yaxshilanishlari iqtisodiy zichlik, jalb qilingan xususiy investitsiyalar va bandlik orqali qo'shimcha real daromad keltiradi; ushbu kengaytirilgan iqtisodiy ta'sirlarni baholash uslubiyati an'anaviy tahlilni to'ldiradi [14].

Ikkinchi o'lcham - texnik-iqtisodiy samaradorlik - operatorlar va loyihalarning nisbiy unumdorligini o'lchashga qaratiladi. Ma'lumotlar o'rami tahlili kirish va chiqish o'zgaruvchilari o'rtasida funksional bog'liqlikni oldindan belgilashni talab qilmagani holda samarasizlik manbalarini aniqlaydi va vaqt bo'yicha dinamikani kuzatadi [7]. Ma'lumotlar cheklangan sharoitda stoxastik chegara tahlili tasodifiy xatolikni hisobga olib, samaradorlik chegarasini ishonchli baholaydi [9]. Innovatsion zanjirning ichki bosqichlarini ajratib o'rganishda tarmoqli modellar yuqori ajratish qobiliyatini ta'minlaydi [8].



1-rasm. Temir yo'l transportining innovatsion rivojlanishida investitsiya samaradorligini baholashning takomillashtirilgan integral metodikasi¹.

¹ muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Uchinchi o'lcham - innovatsion yetuklik - texnologik tayyorlik darajasi va integral innovatsiya indeksi orqali o'lchanadi. Ushbu o'lcham loyihaning texnologik pishiqligini, ilmiy-texnik salohiyatini va bozorga joriy etilish darajasini miqdoriy ifodalaydi hamda strategik rejalashtirishni qiyosiy asosga qo'yadi [6]. To'rtinchi o'lcham - barqarorlik - ekologik samara, ijtimoiy ta'sir, boshqaruv sifati va xavfsizlik mezonlarini birlashtiradi; nomaqbul natijalarni hisobga oluvchi integratsiyalashgan modellar ushbu o'lchamni miqdoriy baholashga asos bo'ladi [11].

Yakuniy bosqichda to'rt o'lcham ko'p mezonli integratsiya orqali yagona ko'rsatkichga birlashtiriladi. Ko'rsatkichlar normallashtiriladi, ekspert baholash asosida vaznlanadi va stsenariy hamda xavf tahlili bilan to'ldiriladi. Innovatsion loyihalarga xos yuqori noaniqlik va bosqichma-bosqich amalga oshirish moslashuvchanligini hisobga olish uchun haqiqiy opsiyalar yondashuvidan foydalaniladi, bu elektrlashtirish va raqamlashtirishni ketma-ket bosqichlarda joriy etish qiymatini aniqroq aks ettiradi. Metodikaning umumiy mantiqiy tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash usullarining qiyosiy tahlili har bir yondashuvning kuchli tomonlari va tatbiq doirasini yaqqol ko'rsatadi. Moliyaviy usullar loyihaning pul oqimlari va qaytimini aniq o'lchaydi, biroq innovatsion qo'yilmalarning texnologik va ekologik foydalarini to'liq qamrab olmaydi. Parametrik bo'lmagan va parametrik samaradorlik usullari nisbiy unumdorlikni baholashda kuchli, ammo moliyaviy qaytimni bevosita ifodalamaydi. Integral innovatsiya indeksi texnologik yetuklikni o'lchaydi, barqarorlikka yo'naltirilgan modellar esa ekologik va ijtimoiy o'lchovni qo'shadi. Ushbu xususiyatlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Innovatsion temir yo'l loyihalarida investitsiya samaradorligini baholash usullarining qiyosiy tavsifi¹

Baholash usuli	Asosiy mezon va ko'rsatkichlar	Innovatsion loyihalarga tatbiq etish imkoniyati	Manba
Foyda-xarajat tahlili (CBA)	Sof joriy qiymat, foyda-xarajat nisbati, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir	Uzoq muddatli infratuzilma va innovatsiyalarning jamiyat darajasidagi sof foydasini o'lchaydi	[10]
Ma'lumotlar o'rami tahlili (DEA) va Malmquist indeksi	Nisbiy texnik samaradorlik, umumiy omilli unumdorlik dinamikasi	Operatorlar va loyihalarni qiyosiy baholash, samarasizlik manbalarini aniqlash	[7]
Tarmoqli DEA (NDEA)	Ko'p bosqichli jarayon samaradorligi, oraliq natijalar	Innovatsion zanjirning ichki bo'g'inlarini ajratib baholash	[8]
Stoxastik chegara tahlili (SFA)	Ishlab chiqarish funksiyasi, tasodifiy xatolikni ajratish	Ma'lumotlar cheklangan sharoitda samaradorlik chegarasini baholash	[9]

¹ Manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Integral innovatsiya indeksi	Innovatsion rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari	Kompaniyaning innovatsion yetukligini strategik rejalashtirishda o'lchash	[6]
ESG-asosli integratsiyalashgan baholash	Ekologik samara, xavfsizlik va boshqaruv mezonlari	Barqarorlik va nomaqbul natijalarni hisobga olgan holda samaradorlikni o'lchash	[11]

1-jadvaldan ko'rinadiki, alohida olingan biror usul innovatsion qo'yilmaning barcha o'lchamlarini qamrab ololmaydi; integral metodikaning afzalligi ushbu usullarni to'ldiruvchi sifatida birlashtirib, har bir o'lchovning kuchli tomonidan foydalanishida namoyon bo'ladi. O'zbekiston modernizatsiya amaliyoti bu yondashuvning amaliy qiymatini tasdiqlaydi: elektrlashtirish va yuqori tezlikdagi xizmatlar moliyaviy qaytimdan tashqari sayohat vaqtining qisqarishi, ekologik yukning kamayishi va turistik oqimning oshishi kabi foydalarni keltiradi [3], lokomotiv parkini yangilash esa unumdorlikni oshirib, ma'lumotlar o'rami va stoxastik chegara usullari yordamida miqdoriy baholanadi [2]. Innovatsion komponentning og'irligini asoslashda raqamli temir yo'l bozorining barqaror o'sishi muhim dalil bo'lib xizmat qiladi [13].

Integral metodikaning mintaqaviy darajadagi natijalari ham yaqqol ifodalanadi. Yangi yo'nalishlarning ishga tushirilishi bog'langan hududlarda yalpi ichki mahsulot o'sishini, sanoat va xizmatlar qo'shilgan qiymatini oshirgani empirik tarzda qayd etilgan [4]. Ushbu kengaytirilgan iqtisodiy ta'sirlar foyda-xarajat tahlilining to'ldiruvchi konturida hisobga olinganda, loyihaning haqiqiy qiymati to'liqroq aks etadi [14], innovatsion yetuklik o'lchami esa elektrlashtirish va raqamlashtirishning bosqichma-bosqich joriy etilishi texnologik salohiyatni izchil oshirib borishini ko'rsatadi [6].

Olingan natijalar taklif etilgan integral metodikaning uchta amaliy ustunligini tasdiqlaydi. Birinchidan, u investitsiya qarorlarini moliyaviy, texnik, innovatsion va barqarorlik mezonlari bo'yicha bir vaqtda asoslashga imkon beradi. Ikkinchidan, ko'p mezonli vaznlash va haqiqiy opsiyalar yondashuvi noaniqlik sharoitida resurslarni eng yuqori samara beruvchi loyihalarga yo'naltirishni ta'minlaydi. Uchinchidan, metodika tarmoq raqobatbardoshligini va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi qarorlarni qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo'l transportining innovatsion rivojlanishi sharoitida investitsiya samaradorligini baholash ko'p o'lchovli yondashuvni talab qiladi. An'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar zarur, ammo yetarli emas: ular innovatsion qo'yilmalarning texnologik, ekologik va mintaqaviy foydalarini to'liq aks ettirmaydi. Taklif etilgan integral metodika moliyaviy samaradorlik, texnik unumdorlik, innovatsion yetuklik va barqarorlik o'lchamlarini yagona baholash konturida birlashtirib, ushbu cheklovni bartaraf etadi va loyihalarni asoslangan ravishda saralash imkonini beradi.

O'tkazilgan qiyosiy tahlil va O'zbekiston modernizatsiya amaliyoti asosida quyidagi takliflar shakllantirildi:

1) investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga texnik samaradorlik, innovatsion yetuklik va barqarorlik mezonlarini birlashtiruvchi integral indeksni qo'llash maqsadga muvofiqdir;

2) innovatsion komponent yuqori bo'lgan elektrlashtirish va raqamlashtirish loyihalarida bosqichma-bosqich amalga oshirish moslashuvchanligini hisobga olish uchun haqiqiy opsiyalar yondashuvidan foydalanish tavsiya etiladi;

3) loyihaning haqiqiy qiymatini to'liqroq aks ettirish maqsadida foyda-xarajat tahlilini kengaytirilgan iqtisodiy ta'sirlar - iqtisodiy zichlik, jalb qilingan investitsiyalar va bandlik - bilan to'ldirish lozim;

4) samaradorlikni muntazam kuzatish uchun ma'lumotlar o'rami va stoxastik chegara usullariga asoslangan davriy monitoring tizimini yo'lga qo'yish va metodikani milliy statistik ma'lumotlar hamda rasmiy hisobotlar bilan moslashtirib, mintaqaviy darajadagi qarorlarni asoslashda qo'llash tarmoq raqobatbardoshligini izchil oshiradi.

Taklif etilgan metodika kelajakdagi tadqiqotlarda milliy statistik ma'lumotlar bazasi asosida empirik sinovdan o'tkazilishi va vaznlash koeffitsiyentlarini aniqlashtirish orqali yanada rivojlantirilishi mumkin. Bunday yo'nalish investitsiya qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshirib, temir yo'l transportining barqaror va innovatsion rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Euronews. Uzbekistan develops new rail links to strengthen Eurasian transit role. 2026. URL: <https://www.euronews.com/business/2026/01/21/uzbekistan-develops-new-rail-links-to-strengthen-eurasian-transit-role>

2. Asian Development Bank. Railway Efficiency Improvement Project (Uzbekistan), Project 51052-002. URL: <https://www.adb.org/projects/51052-002/main>

3. Asian Development Bank. ADB Approves \$162 Million Loan to Modernize Railway and Boost Tourism in Western Uzbekistan. 2021. URL: <https://www.adb.org/news/adb-approves-162-million-loan-modernize-railway-and-boost-tourism-western-uzbekistan>

4. Asian Development Bank. An Impact Evaluation of Investment in Infrastructure: The Case of the Railway Connection in Uzbekistan. URL: <https://www.adb.org/publications/impact-evaluation-investment-infrastructure-case-railway-connection-uzbekistan>

5. OECD / International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2023. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2023/05/itf-transport-outlook-2023_4466cd78.html

6. Integral Assessment of the Level of Innovative Development of the Railway Industry Companies. Transportation Research Procedia, 2022. URL: <https://www.sciencedirect.com/org/science/article/pii/S1874447822000240>

7. Efficiency of railway transport: A comparative analysis for 16 countries. Transport Policy, 2023. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0967070X23001816>

8. Efficiency analysis of European railway companies and the effect of demand reduction. 2025. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2210970625000137>
9. Efficiency analyses for the railway sector: An overview of key issues. Research in Transportation Economics, 2020. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0739885920300755>
10. Methodologies for Economic Assessment of Rail Technical Innovations: Challenges and New Perspectives. Springer, 2025. URL: https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-95284-5_108
11. Environmental and Safety Performance of European Railways: An Integrated Efficiency Assessment. Algorithms, MDPI, 2025. URL: <https://doi.org/10.3390/a19010010>
12. A New Methodology for Optimising Railway Line Capacity: Improving Infrastructure for Sustainable Transport. Sustainability, MDPI, 2025. URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/17/20/9101>
13. Global Market Insights. Digital Railway Market Size & Share, Industry Forecasts 2024–2032. URL: <https://www.gminsights.com/industry-analysis/digital-railway-market>
14. OECD / International Transport Forum. Comparing Road and Rail Investment in Cost-Benefit Analysis. ITF Discussion Paper. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/12/comparing-road-and-rail-investment-in-cost-benefit-analysis_8452f4cb/71792956-en.pdf



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**